

---

## G'OLIBLAR TAQDIRLANDILAR



Qo'shtepa tumanidagi "Yoshlar markazi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5040-son qarori ijrosini ta'minlash hamda tumandagi ijtimoiy soha vakillari o'rtasida kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasini rivojlantirish, ularning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini yanada yuksaltirish maqsadida tuman tibbiyot birlashmasi, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari jamoalari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yinining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

O'tkazilgan bellashuvda 1-o'rinni umumiy o'rta ta'lim maktablari jamoasi, 2-o'rinni tuman tibbiyot birlashmasi jamoasi, 3-o'rinni maktabgacha ta'lim tashkilotlari jamoasi egalladi.

G'oliblar Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasining maxsus diplomi hamda tuman hokimligining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-08-02 13:54:18